

## **IQTISODIYOTNING MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA KORXONALARDA FOYDA TUSHUNCHASI**

Karshiboyeva Shoira Sindarkulovna

TKTIYF, Umumiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Donoboyev Javohir Bahodir o`g`li  
bosqich talabasi

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini izchil ravishda isloh qilish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikasiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish orqaligina ta'minlanishi mumkin. Bu sohada iqtisodiyotni modernizatsiyalash, iqtisodiy faoliyatini baholash va korxonalar foydasini ta'minlash muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Sanoat korxonalar foydasini oshirish, tovar aylanishi hajmining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilish va bularga ta'sir etuvchi omillarni baholash asosiy masalalardan biri bo'lib, korxonalar foydalilik darajasini oshirish maqsadida moliyaviy diagnostika va ta'minlash usullaridan foydalanish, bu jarayonning samaradorligini baholashning keng qamrovli mezonlarini talab etadi.

Shu bilan birga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarining bugungi kundagi eng asosiy muammolardan biri ishlab chiqarish xarajatlarini me'yorlashtirish va ularni zaxiralarini aniqlashdan iborat. Chunki ishlab chiqarishni moliyalashtirish bugungi kunda murakkab masala hisoblanib, mavjud imkoniyatlardan foydalanishni yo'lga qo'yish samaradorlikni ta'minlashni asosiy omili sanaladi va bu korxonalar rentabellik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra ishlab chiqarish maqsadining ahamiyatini asoslash hamda uni xarajatlarini hal etish davr talabi bo'lib, ularni hal etishda alohida ilmiy izlanishlar va moliyalashtirish manbalarini nazariy jihatdan tahlil etish muhim ahamiyatga ega.



## Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11<sup>th</sup> March, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

Bizga ma'lumki korxonalar o'z mahsulotlarini iste'molchilarga sotadi va buning uchun pul mablag'lari oladilar. Moliyaviy natijaga ega bo'lish uchun tushumni mahsulot ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar, ya'ni tannarx bilan solishtirib ko'rish kerak. Agar tushum tannarxdan ko'p bo'lsa, korxona foydaga ega bo'ladi; agar tushum tannarxga teng bo'lsa, u xolda korxona fakatgina qilgan xarajatlarini qoplagan bo'ladi va foyda bo'lmaydi, agar xarajatlar tushumdan ko'p bo'lsa, u xolda korxona zarar ko'radi, ya'ni salbiy moliyaviy natijaga ega bo'ladi, bu korxonani qiyin moliyaviy axvolga solib qo'yadi va inqirozga uchratishi xam mumkin.

Bizga ma'lumki iqtisodiyotning modernizatsiyalash sharoitida korxonalar xo'jalik faoliyatini baholovchi asosiy mezon – foyda hisoblanadi.

—Foyda korxona faoliyati natijasida olingan iqtisodiy samarani tavsiflaydi.[1]  
—Foyda sanoat, tarmoq va korxonaning hamma ishlab chiqarish xo'jalik faoliyati natijalarini umumlashtiruvchi ko'rsatkichdir. Balansdagi foyda yoki foydaning umumiyligi summasi – korxona balansidagi mavjud ishlab chiqarish va ishlab chiqarishdan tashqari, xo'jaliklarning moliya-xo'jalik faoliyatlari natijasida olingan foyda summasidir. [2]

Sanoat korxonalar foydasining asosi bo'lib daromad hisoblanadi. Korxonada material xarajatlardan foydalanish samaradorligini oshirish va foydani ko'tarish uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak.

1. Moddiy resurslardan ishlab chiqarishda foydalanishni me'yorashtirishni takomillashtirish, texnologiyalarni modernizatsiya kilish, ishlab chiqarish chiqindilarni qayta ishlashini takomillashtirish, moddiy resurslardan foydalanishni nazorat qilish va rag'batlantirishni takomillashtirish;
2. Ishlab chiqarish strukturasini yaxshilash, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, ishlab chiqarish va mahsulotning texnik - iqtisodiy darajasini ko'tarish, fan va texnika yutuqlarini joriy etish muddatini qisqartirish, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, kooperatsiyalash, va hududiy joylashtirish darajasini oshirish;
3. Me'yordan ortiqcha zaxiralarni oborotga kiritish va moddiy resurslardan foydalanishda tezkor moslanuvchanlikni yo'lga qo'yish;
4. Moddiy resurslardan foydalanishni nazorat qilish va rag'batlantirishni takomillashtirish;

## Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11<sup>th</sup> March, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

- 
- 5. Ilmiy asoslangan taktik va strategik dasturlar yaratish;
  - 6. Oqilona baho siyosatini ishlab chiqish;
  - 7. Yangi ilg'or texnologiyalar va axborot tizimlarini amaliyatga joriy etish.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1. Mahmudov. E.X. —Korxona iqtisodiyoti T.: TDIU, 2004y 158-bet.
- 2. Ortiqov. A —Sanoat iqtisodiyoti T.: TDIU, 2004y 216-bet.
- 3. Abdukarmov.B.A —Korxona iqtisodiyotil T.: —Fan 2005 y. 220-bet.